UDK: 633.2/.3:631.67:636.085

TURLI SUG'ORISH USULLARIDA OZUQABOP EKINLARNI YETISHTIRISHDA SUV SARFI VA OZUQA BIRLIGI SAMARADORLIGI

Raxmonov R.U. , Ermatova M.Q

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali
"Agrobiologiya va dorivor o'simliklar yetishtirish" kafedrasi dotsentlari.

Shahrullo2017@mail.ru

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20346535

Annotatsiya: Mazkur maqolada ozuqabop ekinlarni turli sug'orish usullarida yetishtirishda suv sarfi va ozuqa birligi samaradorligi tahlil qilingan. Ozuqabop ekinlarning turi, biologik xususiyatlari hamda sug'orish texnologiyalariga qarab suvga bo'lgan ehtiyojlari turlicha bo'lishi aniqlangan. Shuningdek, egatlab, yomg'irlatib va tomchilatib sug'orish usullarida har bir sentner ozuqa birligi yetishtirish uchun sarflanadigan suv miqdori qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tomchilatib sug'orish usuli suv tejamkorligi va ozuqa birligi samaradorligi bo'yicha eng yuqori natijalarni berishi kuzatildi.

Kalit so'zlar: Ozuqabop ekinlar, suv sarfi, sug'orish usullari, tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, egatlab sug'orish, ozuqa birligi, beda, makkajo'xori, oqjo'xori, silos, suv tejamkorligi.

Аннотация: В данной статье проанализированы расход воды и эффективность кормовых единиц при выращивании кормовых культур различными способами орошения. Установлено, что потребность кормовых культур в воде зависит от их вида, биологических особенностей и применяемых технологий орошения. Также проведён сравнительный анализ объёма воды, расходуемого на производство одной центнерной кормовой единицы при бороздковом, дождевальном и капельном орошении. Результаты исследований показали, что метод капельного орошения обеспечивает наивысшие показатели водосбережения и эффективности кормовых единиц.

Ключевые слова: Кормовые культуры, расход воды, способы орошения, капельное орошение, дождевальное орошение, бороздковое орошение, кормовая единица, люцерна, кукуруза, сорго, силос, водосбережение.

Abstract: This article analyzes water consumption and feed unit efficiency in the cultivation of forage crops under different irrigation methods. It was determined that the water requirements of forage crops vary depending on their species, biological characteristics, and irrigation technologies used. A comparative analysis was also conducted on the amount of water consumed for producing one centner of feed unit under furrow, sprinkler, and drip irrigation methods. The research results showed that drip irrigation provides the highest indicators of water saving and feed unit efficiency.

Keywords: Forage crops, water consumption, irrigation methods, drip irrigation, sprinkler irrigation, furrow irrigation, feed unit, alfalfa, maize, sorghum, silage, water saving.

Kirish. Bugungi kunda suv resurslaridan oqilona foydalanish qishloq xo'jaligidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chorvachilik tarmog'ini mustahkam ozuqa bazasi bilan

ta’minlash uchun ozuqabop ekinlarni yetishtirishda suv tejamkor texnologiyalarni qo’llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ozuqabop ekinlar turiga, naviga va biologik xususiyatlariga qarab ularning suvga bo’lgan ehtiyojlari turlicha bo’ladi.

Ozuqa yetishtirishdan asosiy maqsad chorva mollarini to’yimli ozuqa bilan ta’minlashdir. Chorva mollarining turiga va mahsuldorligiga qarab ozuqa birligiga bo’lgan ehtiyoj ham farq qiladi. Masalan, 1 kg sut yetishtirish uchun 1,0–1,4 ozuqa birligi, 1 kg tirik vazn qo’shish uchun esa 10–12 ozuqa birligi talab etiladi. Yosh mollarni parvarishlashda har kuni 550–600 g vazn o’sishi uchun 5–7 ozuqa birligi sarflanadi. Shu sababli yuqori sifatli va arzon ozuqa yetishtirishda suvdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqotlarda turli ozuqabop ekinlarning yalpi hosili, ozuqa birligi miqdori hamda sug’orish usullariga qarab suv sarfi ko’rsatkichlari tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko’rsatdiki, har bir sentner ozuqa birligi yetishtirish uchun sarflanadigan suv miqdori sug’orish usuliga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, tomchilatib sug’orish usulida suv tejamkorligi yuqori bo’lib, boshqa usullarga nisbatan kam suv sarflanishi kuzatildi.

Beda pichani yetishtirishda an’anaviy egatlab sug’orishda 58,5 m³ suv sarflangan bo’lsa, yomg’irlatib sug’orishda 40,4 m³, tomchilatib sug’orishda esa 26,6 m³ suv sarflangan. Makkajo’xori silos uchun yetishtirilganda bu ko’rsatkichlar mos ravishda 45,8; 30,0 va 21,7 m³ ni tashkil etgan.



Oqjo’xorini silos uchun yetishtirishda eng yaxshi natija kuzatilib, tomchilatib sug’orishda har bir sentner ozuqa birligi uchun atigi 18,5 m³ suv sarflangan. Bu esa mazkur usulning yuqori samaradorligini ko’rsatadi.

Yozgi takroriy va kuzgi oraliq ekinlarda ham tomchilatib sug’orish usulida suv sarfi ancha kamaygan. Bu holat takroriy ekish tizimida suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqotlar natijasida ozuqabop ekinlarni yetishtirishda sug’orish usuli suv sarfi va ozuqa birligi samaradorligiga katta ta’sir ko’rsatishi aniqlandi. Tomchilatib sug’orish usuli barcha ekin turlarida suv tejamkorligi bo’yicha yuqori natija berdi. Ayniqsa, makkajo’xori va oqjo’xori silos uchun yetishtirilganda mazkur usulda suv sarfi sezilarli darajada kamaydi.

Shuningdek, takroriy va oraliq ekinlarni yetishtirishda ham suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish chorvachilik uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida suv tanqisligi sharoitida tomchilatib va yomg’irlatib sug’orish texnologiyalarini keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atobaev B., Xudoyqulov J. Ozuqabop ekinlar yetishtirish texnologiyasi. – Toshkent: Mehnat, 2018.
2. Rahimov O., Qodirov A. Sug’oriladigan dehqonchilik asoslari. – Toshkent, 2020.
3. Nosirov U. Chorvachilik uchun ozuqa bazasini mustahkamlash. – Samarqand, 2019.
4. Qurbonov Sh. Tomchilatib sug’orish texnologiyasining samaradorligi. // Qishloq xo’jaligi jurnali, 2021, №4.
5. O’zbekiston Respublikasi Suv xo’jaligi vazirligi ma’lumotlari, 2022.